

MIGRATSIYA - AQLLARNING SIZIB CHIQIB KETISHI VA AQLLARNING QAYTISHI JARAYONI(MI)



Isaxova Shahlo Muxtarovna

Guliston davlat pedagogika instituti v.b.dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola aholini ko'chishi hisoblangan migratsiyani mazmuni, fan tarmoqlarida o'rganilishida o'ziga xos jihatlari, shuningdek emigratsiya, immigratsiyani aqllarni qaytishiga ta'sir etishidagi omillar ijtimoiy-falsafiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: Migratsiya, ijtimoiy muammo, migratsiya koridori, aholi, ilm egalari, salohiyatli mutahassislar.

Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyat va tabiatga tegishli masalalar shiddatli xarakter kasb etmoqda, shuningdek ularning yechimi ham, natijasi xilma-xil bo'lib qoldi. Bu esa "migratsiya" atamasi doirasini kengaytirish zaruratiga olib keldi. Hozirgi vaqtda migratsiya aholining ish, o'qish, turizm, tijorat faoliyati bilan bog'liq vaqtinchalik harakatlariga tobora ko'proq sabab bo'lmoqda. Migratsiya nafaqat davlatlararo, balki davlat ichkarisida bo'lishi bilan keng qamrovli tushuncha bo'lib bormoqda. Migratsiya muammosi hozirgi kunda global xarakter kasb etib, ilmiy bilimlarning turli sohalarida faoliyat olib borayotgan olimlarning tadqiqot ob'yektiga aylandi. Falsafa migratsiyani barcha turlariga nisbatan muayyan axloqiy baholashning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Demograflar asosan umumiy ma'lumotlarga tayanib migratsiya oqimlarining mohiyati, modeli va yo'nalishini hamda migrantlarning (yosh, jins, kasb, ta'lim va boshqalar) xususiyatlarini tadqiq qilmoqdalar.

"Migratsiya" atamasi lotincha "migratio" so'zidan olingan bo'lib, aholining mamlakat doirasida bir joydan boshqa joyga yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko'chishi yoki ko'chirish ma'nolarini bildiradi.[1] Bir joydan boshqa joyga yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko'chish insonlarda ish, o'qish va boshqa maqsadlarni ko'zlab amalga oshiriladi.

Bu tushunchani yuzaga kelishida ma'lum bir tarixga ega. Fransiyalik olim G. Mas: "Yer yuzasidagi deyarli barcha odamlar u yoki bu ma'noda migrant hisoblanib, insoniyat paydo bo'lgach, "homo sapiens" ning bir guruhi Yevropa, Osiyo, Avstraliya va Amerika bo'ylab butun dunyoga tarqala boshlagan".[2] Homo sapiens odami (lot. ongli odam), sut emizuvchilar sinfining Hominidae oilasiga mansub primat turidir. Afrika qit'asidan boshqa hududlarga qariyb yuz ming yil ilgari ko'chib o'tishni boshlashgan. Bu odam mavhum fikrlash, nutq qobiliyati, yuksak rivojlangan miyaga egaligi bilan ajralib turgan.

Zamonaviy fanda aholi migratsiyasining mohiyatini turli yondashuvlar doirasida aniqlaydigan ko'plab ta'riflar mavjud. S.K.Bondireva "Migratsiya: mohiyat va hodisa" («Миграция: сущность и явление») kitobida migratsiyaning quyidagi ta'rifini beradi: "Migratsiya-inson harakatchanligining tabiiy ko'rinishi bo'lib, u yashash sharoitlarini yaxshilash, ehtiyojlarini yanada to'liq va ishonchli qondirish istagi bilan rag'batlantiriladi".[3] Ushbu tarifda migratsiyaning ijtimoiy-falsafiy va iqtisodiy tabiatini, uning mavjudligini aniq aks ettiradi.

"Jamiyat tizimidagi migratsiya jarayonining ijtimoiy-falsafiy tahlili shuni ko'rsatadiki, uning ijobiy va salbiy tomonlari aholining turmush tarzi va zamonaviy ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin".[4] Migratsiya jarayonida aholini bir qismi boshqa bir hudud yoki mamlakat aholisining milliy mentalligiga moslashib ketishi, moddiy barqarorlikka erishishi va ma'naviy o'sishi ijobiy xolatdir. Ayrim holatlarda mavjud mamlakatlardagi titul millatni o'z imkoniyatini yuqori qo'yishi, boshqa millat migrant, immigrantlarni imkoniyatlarni past baholashi salbiy xolatdir.

Bugungi kunda O'zbekiston rivojlangan davlatlar Germaniya, Buyuk Britaniya, Janubiy Korea, Litva, Turkiya bilan mehnat bozorlarini ochish borasidagi aloqalar o'rnatdi. Bu esa

davlatimiz fuqarolarini boshqa davlatlarga borib mehnat qilishi hamda moddiy barqarorlikka erishishi uchun halqaro aloqalarni qonuniyligini taminlamoqda. O'zbekiston yuqorida nomi keltirilgan ayrim davlatlar bilan o'rtada qonuniy migratsiya koridorini shakllantirayabdi. Migratsiya koridori – bu migratsiya aloqalari o'rnatilgan ikki davlat o'rtasidagi migratsiya yo'li hisoblanadi. Bu yo'l davlat fuqarolariga o'z mutahassislik ko'nikmasi doirasida xorijiy davlatlarda imkoniyatlar eshigi bo'lib xizmat qiladi. Yevropa davlatlari mehnat bozorida O'zbekistondan borgan mehnat migrantlarining o'z o'rniga ega bo'lishi va davlatimizni ushbu davlatlar mehnat bozorida qayta shartnoma qilishga erishishda ikkita omil rol o'ynaydi:

-mehnat migranti ishchanligi, ishga munosabati, mehnat qonunchiligiga rioya qilishi.

-qaysi davlatga borishidan qat'i nazar, o'sha davlatning qonunlariga rioya qilish, migratsiya qonun-qoidalarini buzmaslik, hattoki bu yerning urf-odatlarini, dini va madaniyatini hurmat qilishi.

Inson butun borliqdagi barcha tirik jonotlar ichida aql va tahliliy tafakkuri bilan ajralib turadi. Insondagi aql o'ziga va o'zgalarga doimiy ravishda foyda feradi. Aql arabcha so'z bo'lib, lug'atda "tutish", "qaytarish", "bog'lash" kabi ma'nolarni anglatadi. Insondagi aql ham o'z egasini yomon axloqdan, zararli ishlardan qaytarib, uni insoniylik chegarasida ushlab turadi. O'z navbatida insonlarni boshqa millat vakillari bilan yaxshi, do'stona munosabatlarini ham bog'lab turadi. Shuningdek, inson o'z bilim va malaka ko'rsatkichini aql bilan yuqori baholab, ma'naviy o'sish, moddiy barqarorlikka erishish uchun mavjud imkoniyatlardan to'g'ri foydalandi. Bu imkoniyatlar o'z davlatida yoki o'zga yurtda yaxshi ish sharoiti hamda o'z mehnatiga yuqori ish haqi uchun ko'chib borib, ishlashga harakat qiladi.

Emigratsiyani aqlarning sizib chiqib ketishiga qiyoslashimiz mumkin. Malakali shaxslarning odatda yuqori ish haqi yoki yaxshi ish sharoitlari uchun kelib chiqish mamlakatidan boshqa mamlakatga emigratsiyasi. Emigratsiya (lot. — ko'chib ketmoq) — aholining muayyan mamlakatdan boshqa mamlakatga doimiy yoki vaqtinchalik yashash uchun (ixtiyoriy yoki majburiy) ko'chishi.

2024-yilning 1-choragida O'zbekistondan chet elga doimiy yashash uchun ko'chib ketgan shaxslar soni 2,586 nafarni tashkil yetdi. Bu 2023-yilning shu davridagi emigrantlar soniga nisbatan (4,063 kishi) deyarli 36 foizga kam ko'rsatgichdir. 2024-yilning 1-choragida ro'yxatga olingan O'zbekistondan eng yuqori emigratsiya Qozog'istonga bo'lib (2,125 kishi yoki 82.2%), undan keyingi o'rinlarda Rossiya Federatsiyasi (357 kishi yoki 13.8 %), Qirg'iziston (22 kishi yoki 0.9%), Koreya Respublikasi (20 kishi yoki 0.8%), Turkmaniston (8 kishi yoki 0.3%) va boshqa mamlakatlar (54 kishi yoki 2%) qayd yetilgan. Jinsiy tarkib nuqtai nazaridan, erkak va ayol emigrantlar orasida muvozanatli nisbat kuzatilib, ularning 1,323 nafari erkaklar (51.2%) va 1,263 nafari ayollar (48.8%) bo'lgan (O'zStat, 2024-yil; 2023-yil).[5]

Immigratsiyasini aqlarning qaytishiga qiyoslasak bo'ladi.

Malakali shaxslarning belgilangan mamlakatga immigratsiyasi. Shuningdek, "aqlarning sizib chiqib ketishi" ning **aksi** deb ham ataladi.[6] Immigratsiya — mehnatga layoqatli aholining ma'lum bir mamlakatga doimiy yashash uchun boshqa mamlakatlardan ko'chib kelishi. Xorijiy fuqarolarning ma'lum bir mamlakatga doimiy yashash uchun ko'chib kelishi va shu toifadagi kishilardir.

Aql-zakovat va fan egalarini xorijga ketib, shu davlatlarda ma'lum vaqtgacha yoki muqim yashab qolishi, davlatlarni sohalar rivojida o'sish ko'rsatkichini sekinlashtiradi. "Agar Angliyadagi statistikani bilsak, buning g'aroyibliyi yana ham oydinlashadi. U shuni ko'rsatadiki, Angliyadagi mashhur vrachlarning ko'p qismi chetdan, shularning katta qismi musulmonlardir. Nafaqat vrachlik, balki handasa, matematika, fizika va boshqa soha egalari ham o'zga yurt musulmonlaridan sanaladi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng nodir, ko'zga ko'ringan olimlar, arab davlatlaridan Amerikaga ko'chib o'tganlar. Shulardan Misrdan kelgan olim-u muhandislar 58%ni tashkil qilgan. Mana shu foiz ichida 80%i doktorlik, 17.5% magistrlik darajasini olishgan. Suriyaga nisbatan bu statistika shuni ko'rsatadiki, Suriyada ishlovchi shifokorlar adadi 1.500 ni tashkil etsa, bu ko'rsatgich xorijda ishlovchi Suriyaliklarda 4.000 ga yetadi. Shuningdek, Amerika oliy ta'limlaridan biri quyidagilarni keltirib o'tadi: AQSH viloyatlarida ta'lim oladigan Lubnonlik

talabalarining 90% o'z yurtlariga qaytishga qiziqmaydilar. G'arb universitetlarida tahsil oladigan 80% Urdunlik talabalar vatanlariga qaytishni istamaydilar" [7]

Aqllarning sizib chiqib ketishi va aqllarning qaytishi kabi migratsion fenomenga quydagi omillarni keltirishimiz mumkin:

-Yashab turgan hududidagi ishsizlik sabab mehnat va kasb qobiliyatiga ega mutaxassisning iqtisodiy barqarorlikka erishishni maqsad qilib ko'chishi.

-Rivojlangan Yevropa davlatida o'qib, ishlab, yurtga qaytganda kasbi va salohiyatiga munosib lavozimni topolmay, munosib lavozimli ish topadigan davlatga qaytib ketishi.

-Ilmli, salohiyatli mutaxassislarni o'z ilmiy bahslariga munosib muhitni topolmasligi va mavjud ilmiy laboratoriya, sohasida mexanizm shakllanmaganligidan bir davlatdan boshqa davlatga chiqib ketishi.

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasining demografik ko'rsatkichlari statistik raqamlarning umumiy va tashqi migratsiyadagi nisbati ochiqlangan.

Umumiy migratsiya:

Ko'chib kelgan – 218,8 ming kishi;

Ko'chib ketgan – 233,2 ming kishi.

Shundan tashqi migratsiya:

Ko'chib kelgan – 2,9 ming kishi;

Ko'chib ketgan – 17,3 ming kishi. [8]

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, aholi harakatining global muammosini o'zida ifodalagan migratsiya ijtimoiy, siyosiy, madaniy, iqtisodiy mazmun kasb etadi. Shuningdek, jamiyatning ushbu sohalari rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonda davlat va millat egalari bo'lgan salohiyatli, bilimli mutahassislarga munosib sharoit, ish o'rinlarini yaratish, aql egalarini sizib chiqib ketishini oldini olishga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд (Е-Д). “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2006, -Б.588-589.

2. Gabriel Mas. Historire des migration humaines/ Cahiers de Vilage de fores №65. Montbrision. Groupe d'histoire locale du Centre Social Montbrision. 2018, -P.3.

3. Бондырева, С. К. Миграция (сущность и явление): учеб.-метод. пособие/ – Воронеж: МОДЭК, 2004. -С.47.

4. Горинова Е.В. Миграция населения как объект социально-синергетического осмысления в условиях глобализации. Гуманитарные науки. Философия. Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. № 4(20) 2011.-С.69-70.

5. Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM), 2024-yil mart, MTM Migratsiya vaziyatiga oid hisobot, IOM, O'zbekiston. –Б.7.

6. Халқаро меҳнат ташкилоти. Миграция бўйича ОАВ учун глоссарий. –Т: 2022, -Б.15.

7. <https://nasafziyo.uz/index.php?newsid=9878>

8. <https://zamon.uz/detail/ozbekistonning-demografik-korsatkichlari-elon-qilindi-26844>